

## “QUSHNOMALAR”NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Halimova Shahlo To‘lqin qizi*

*Alfraganus university o‘qituvchisi*

## ОСОБЕННОСТИ ЭПОСОВ СЕРИИ «ПТИЧЬИЙ ЯЗЫК»

*Халимова Шахло Тулкин кизи*

*Преподаватель Университета Альфраганус*

## FEATURES OF THE EPICS OF THE “BIRD’S LANGUAGE” SERIES

*Khalimova Shakhlo Tulkın kizi,*

*Teacher of Alfraganus University*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada asrlar davomida sayqal topgan “Qushnomalar”ning matniy ildiziga doir qarashlar tahlilga tortildi. Ularning tub mohiyatini hamda ularda mujassamlashgan islomiy-tasavvufiy ruhiyatni, targ‘ib etilgan ezgu g‘oyalarning davri bilan bog‘liq jihatlari tavsiflandi.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy, genezis, payg‘ambär, Iso, lison, Qaqnus, Qur‘on, oyat, tasavvuf, qasida.

**Аннотация:** В статье проанализированы взгляды на текстуальные корни серии былин «Птичий язык», отшлифованные веками. Описаны их фундаментальная сущность и воплощенный в них исламско-мистический дух, аспекты пропагандируемых благих идей, относящиеся к эпохе.

**Ключевые слова:** Навои, бытие, пророк, Иисус, язык, Какнус, Коран, аят, мистика, касыда.

**Abstract:** The article analyzes views on the textual roots of the series of epics “Bird’s Language”, polished over centuries. Their fundamental essence and the Islamic-mystical spirit embodied in them are described, aspects of the promoted good ideas related to the era.

**Key words:** Navoi, genesis, prophet, Iso, language, Qaqnus, Qur'an, verse, mysticism, qasida.



shahlohalimova41@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-4790-4186>

Tel: (91) 312-73-90

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotining ko‘plab tarmoqlarida “genezis” tushunchasi bilan takror va takror to‘qnashyapmiz. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da genezis-“yunoncha” “genezis”—kelib chiqish, paydo bo‘lish tarixi mazmunidagi so‘z sifatida izohlab o‘tilgan [5:492]. Darhaqiqat, ushbu atama yunoncha ildizga ega bo‘lib, u rus tiliga “kelib

chiqishi, yaratilishi, tug‘ilishi”-, deya tarjima qilinib, bizning til boyligimizga “ibtido” muqobilida kirib kelgan. “Genesis”— kosmosdan tortib, hayotning murakkab olamigacha bo‘lgan hamma narsaning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi bilimga bo‘lgan doimiy izlanishni aks ettiradi. Uning ilmiy talqinini tushunish bizning dunyo haqidagi tasavvurimizni boyitadi, bilim va tushunishga

intilishda keyingi izlanish va kashfiyotlarga ilhomlantiradi. “Qush tili” dostonlari genezesini tadqiq etish orqali biz “Qushnom” turkumidagi dostonlarning yaratilish tarixi hamda sabablariga oydinlik kiritamiz. Alloh taolo insoniyatni go‘zal bir shaklda yaratarkan, uning butun vujudiga tana a’zolarini, har bir qon tomirlarigacha shunday yuksak mukammallik ato etganki, so‘ngida unga iymon ziynatini jo aylab, qalb va aqlni vobasta ayladi. Jamiiyki maxluqot-u mavjudotlar ichida insonni sharaflab- nutq irod etmoq uchun til ne’matini hadya etdi. Yer yuzida mavjud, mavdud, yaratgan, yaratilgan, xayol qilingan, ma’lum bo‘lgan, taxmin qilingan nimaiki bo‘lsa, til barchasini o‘zida mujassam qiladi, ularning bor yoki yo‘qliklarini e‘lon qiladi. Ilmga oid barcha narsani til oshkor qiladi. Ilm esa haq va botilning barcha jabhasida o‘zining borligi asos ekanligini bildiradi [2:4]. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam quyidagicha marhamat qiladilar: “Mo‘min kishining tili qalbining ortidadir. Gapirmoqchi bo‘lganida qalbi bilan hisoblashib ko‘radi, so‘ngra tili bilan aytadi, qalbi bilan o‘ylab ko‘rmaydi”[2:13].

Inson tilining mavjudotlar orasidagi o‘ziga xos quadratini yuqoridagi hadis yaqqol tasvirlaydi. Tarixdan bilib olamizki, har bir payg‘ambar Alloh tomonidan oddiy insonlarning kuch yetolmaydigan g‘ayritabiiy qobiliyat va donolikka ega bo‘lgan. Shu kabi noyob mo‘jizalarga ega bo‘lgan Sulaymon alayhissalomga Alloh “qush tilini” – ya’ni, qushlar bilan muloqot qilish qobiliyatini bergen. Bu Qur’oni Karimning “Naml” surasidagi oyatda tasvirlangan: Sulaymon alayhissalom otasi Dovud alayhissalomdan meros qilib olgan payg‘ambarlik va ilm bilan, “Ey odamlar, bizga qushlarning (va boshqa barcha jonivorlarning) tili, shuningdek, (payg‘ambarlar va podshohlarga xos) boshqa barcha ne’matlar berildi”, deganlar [6:419].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ДИТЕРАПУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Tasavvuf adabiyotimizda “Qush tili” ramzi orqali inson ruhi nafsiga emas, balki uni zabit etib, ilohiy muhabbatga – Allohnинг yaqinligiga va marhamatiga erishish g‘oyasi badiiy asarlarga singdirilgan. Qur’oni Karimning “Naml” surasi (20-23-oyatlar)da Hudhud qushi Sulaymon alayhissalomga Yamanning Saba shahrida Bilqis malikasining hukmronligi va xalqining quyoshga sig‘inishi

haqida xabar beradi. Ushbu oyatlar Hudhudning butun bir xalqning islomga kirishi haqidagi xabarni yetkazishini tasvirlaydi. Buyuk shoir Alisher Navoiyning ham ilhom manbai bo‘lgan Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni “Naml” surasining 16-oyatiga, ya’ni Sulaymon alayhissalomga “qush tili” ilmining berilishiga ishora qiluvchi baytlarni o‘z ichiga oladi:

*“Qilcha berdi chumoliga, kamar  
Ul Sulaymon birla bo‘ldi hamsamar.  
Berdi xil’at unga, abbosiy tuni,  
Bebadal “Tosin” ga esh etdi uni”*[7:15].

“Naml” surasi nomi arabcha “chumoli” so‘zidan olingan bo‘lib, Alloh taoloneng eng zaif va mehnatkash mavjudotlardan biri bo‘lgan chumoli haqida ham zikr qilinishi tufayli shu nom bilan atalgan. Ushbu sura “To sin” so‘zi bilan boshlanadi. “Mantiq ut-tayr” dan ilhomlangan Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarini yaratdi. Asarning 85-bobida Hudhud qushining javobida, “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” asarlarida Hudhud qushining boshqa qushlardan ilm va aql-idrok jihatidan ustunligining Qur’oni Karimdagagi Sulaymon alayhissalom bilan bog‘liq voqeaga asoslanganligi ko‘rsatiladi.

*“O‘truda bu bo‘ldi Hudhudning so‘zi:  
“Kim manga tushmanish Sulaymonning ko‘zi.  
Haq taolokim anga aylab nazar,  
Ham rasul aylab edi, ham tojvar.  
Jinnu insu vahshu tayr ustida shoh-  
Aylab erdi oni lutf aylab iloh.  
Bo‘yla sohibdavlati sohibsarvi-  
Iltifotin topti men yanglig‘ haqir.  
Ondin o‘ldi bu qadar izzat manga,  
Bosh uza bu afsari rif‘at manga.  
Kimga-kim aylar nazar ahli safo,  
Ul nazar tufrog‘ ni aylar kimyo”*[1:132].

Mana shu ilm hikmati ila Hudhud dunyo qushlarining Simurg‘ni izlab chiqqan safarlarida har bir savolga donishmandlik va bosiqlik ila javob beradi. Zotan, Hudhud Qur’oni Karimda nomi zikr etilgan yaratilmishlar safidadir.

### NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Shu xususda inson lisonining ilohiy hamda irfoniy jihatdan nimalarga qodir ekanligini namoyon etish uchun qush obrazini badiiyatda jonlantirish, ularga nutq ato etish Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan didaktik ruhdagi “Qushnomalar” genezisi

ilohiy-muqaddas kitob Qur’oni karim bilan bog‘liq ravishda o‘rganilishi eng maqbul yo‘ldir. Ilohiyat va tabiat bir-biriga uzviy bog‘liq. Yozma adabiyotda qush obrazi mavjudki, u o‘zida ilohiy vazifani bajarayotgandek. Baqara surasining 260-oyatida: “Eslang (ey, Muhammad), Ibrohim: “Ey, Robbim, menga o‘liklarni qanday tiriltirishingni ko‘rsat, deganida, Alloh “Ishonmadingmi?”- dedi. Ibrohim aytdi: Yo‘g‘-e, lekin dilim yanada taskin topsin”. Alloh aytdi: “To‘rtta qushni olib huzuringga jamla (va ularni maydalab), so‘ng (atrofingdagi) har bir tog‘ning ustiga bo‘lak-bo‘lak qilib qo‘yginda, keyin ularni chaqirgin, (ular tirilib) darhol huzuringga keladilar. Bilginki, albatta, Alloh qudrat va hikmat egasidir” [8; 30]. Ushbu oyatdagi o‘limdan keyin qayta tirilish ayni Allohnинг va’dasi ekanligi “Qushnomalarda” Qaqnus qushi obrazida badiylashtirildi.

Fariduddin Attor “Mantiq ut-tayr”ning 17-maqolatida bu qushga alohida hikoya bag‘ishlab, tarixan rivojlanib kelayotgan ushbu obrazning adabiyotga olib kirgan g‘oyaviy genezesini yaqqol ochib beradi. Olima Z.Mamadaliyeva Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ramziy obrazlar tizimi mavzusidagi tadqiqot ishida Qaqnusni quyidagicha ta‘riflaydi: “Uning ko‘rinishi burgutsimon va rangi qizil-tillasimon yoxud olov rangda deb tasavvur qilingan. Aytishlaricha, umrining oxirida u turli xushbo‘y o‘tinlar bilan o‘z uychasini yondirmish va uning kulidan yangi qaqnus paydo bo‘lar ekan. Misrliliklarning tasavvuri bo‘yicha, u o‘tlarning xushbo‘y hididan o‘lar ekan, so‘ng esa quyoshda yonib ketarmish va uning tanasidan Qaqnus bola chiqar emish”[3:82]. “Mantiq ut-tayr”da tiriklik va o‘lim o‘rtasida bosib o‘tiladigan manzil ifodasi Qaqnus orqali tasavvufona ifoda etiladi. Hudhud tilidan hikoya qilingan Qaqnus tarixining yoritilishiga Oliy ishq talabida yo‘lga chiqqan qushlardan birining ushbu manzilga omon yetishligiga ko‘zi yetmayotganligi, o‘lim xavfidan shikoyat qilganligi sabab bo‘ladi.

*Chun ajalni eslasam, titrar dilim,*

*Avvalin manzilda topgaymen o‘lim*[7:234].

Ushbu baytda o‘limdan qo‘rqish, dunyo tashvishlari ifodasi borligi ko‘rinadi. Ikkinci misrada o‘lim haqida chuqurroq ma‘no bor. Bu yerda, o‘lim vaqtida ruh oldingi o‘rinda, ya’ni o‘limdan keyin mavjud bo‘lgan hayotda bo‘lishi ta’kidlanadi. Tasavvufiy tahlil doirasida bu joy

ma’naviyat, o‘lim esa ruhning dunyo dardlaridan xalos bo‘ladigan burilish nuqtasidir. Bu haqida Qur’oni Karimda quyidagi oyat keltirilgan:

*“Ey Robbim! Meni muborak manzilga tushirgin! Sen (manzilga tushiruvchilarining yaxshisidirsan*[10:344].

Mu‘minun surasining ushbu 29-30-oyatlarida Nuh(a.s) lutfi ila kemadagi hamrohlarini go‘zal manzilga yetkazishligini tilab duo qilgan mazmun aks etgan. Har ikki holatda ham: Nuh (a.s)ga ergashgan qavm vakillari va hikoyadagi qushlarning ham safardan maqsadlari bitta - Alloh buyurgan manzilga (ya’ni ruhimiz kelgan joy nazarda tutilyapti) gunohlardan poklangan holda yetishish. O‘lim qanchalar qo‘rqinch uyg‘otmasin, lekin undan keyin ruh uchun haqiqiy hayot boshlanishi mana shunday qushlar obrazi orqali mahorat-la badiylashtirilgan. Hudhudning javobi orqali fikriy dalillari aynan yana Qur’on oyatlariga ishora qilayotganligini yuqorida suraning 12-14-oyatlar orqali muqoyosa qilishimiz mumkin.

*Dedi Hudhud: ey zaif-u notavon,*

*Bir hovuch patsen, suyaksen, ustuxon.*

*Ustuxonlar ul birikmishlar tuzuk,*

*Ul suyaklar ichra so‘ng issiq ilik* [7:234].

Oyat: “...laxta qonni parcha go‘sht qilib yaratdik, bas, parcha go‘shtni suyaklar qilib yaratib, bu suyaklarga go‘sht qopladiq, so‘ngra unga jon kiritib oldingi holidan butunlay boshqacha bir vujudni paydo qildik” [8:342]. Ayonki Hudhudning tilidan ifoda etilmish fikr, inson yaralishining qay jarayonlarda kechishi Yaratganning qo‘lida ekanligiga qaratilgan. Baytdagi “ustuxon” so‘zi etimologik lug‘atda oyatdagi singari “suyak ustidan qoplangan go‘sht” mazmunida izohlangan. Shu orqali Qaqnus obrazi o‘lim, qayta tug‘ilish va o‘limdan keyingi hayot talqinlarini namoyon etishi bilan diniy va ma’naviy asarlarda muhim ahamiyat kasb etdi.

“Mantiq ut-tayr”da Qaqnus obrazining rivojlangan nuqtalaridan yana biri, Attor kul orasidan katta qush emas, balki uning polaponi paydo bo‘lishiga ishora qiladi:

*Cho‘g‘ bo‘lur xirmon yonib, Qaqnus-da ul,*

*So‘ng qolur cho‘g‘ o‘rnida bir to‘da kul.*

*Kul sovib, o‘tgach yana fursat picha,*

*Kul aro paydo bo‘lur qaqnus bacha* [7:237].

Turkiy adabiyotimiz peshvosi Hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosida Qaqnus obrazi talqinini ko‘p o‘rinlarda uchratishimiz mumkin, ammo “Lison ut-tayr” dostonida uning mukammal namunasi tasvir etilgan, -desak adashmaymiz. Dostonda Qaqnus va uning kulidan ochilgan “qaqnusbacha” orqali ma’naviy ota-o‘g‘il o‘rtasidagi ijodiy ko‘prik mohiyati ohib beriladi. Hazrat Navoiy Qaqnus tasnifi va tavsifiga xos jihatlarni mohirona Attor hayoti va ijod yo‘liga qiyoslab qalamga olganki, har qancha tahsinga loyiqdir.

*Ulki ul kullardin axgardek chiqib,  
Balki axgardin samandardek chiqib.  
Har nekim avvalg‘i qushqa erdi shon,  
Zohir o‘ldi munda ham ondin nishon [ 1:265].*

Ya’ni Navoiy bu yerda ustozini olovda yongan Qaqnusga qiyoslab, zohirda u o‘lgandek ko‘rinsa-da, undan buyuk nishon borligiga ishora sifatida Shayx Attorning ijodiy merosiga ishora qiladi. O‘zining bu ijod maydoniga kirib kelishini yonib turgan kuldan “axgardek”, ya’ni cho‘g‘dek ajralib chiqishga qiyoslaydi. Keyingi misrada ruju san’atini qo‘llash orqali “axgardin” o‘tda yonmas “samandardek” ko‘tarildi, -deya badiiy mahoratini namoyon etadi. Bu o‘rinda Qaqnus metaforasi o‘zgarish hamda yangi boshlanish imkoniyatlarini ta’kidlash uchun ishlatilganligi diqqatga sazovordir.

Yuqoridaq mazmunga yaqin oyatlar Qur’oni karimda Iso alayhissalom nomi bilan ham bog‘liq. Oli Imron surasining 49-oyatida: “Shuningdek, Isroil avlodiga payg‘ambarligim (qilib yubordi va aytadi): “Men sizlarga Rabbingiz huzuridan (payg‘ambarligimga dalolat qiluvchi) mo‘jiza bilan keldim; men sizlarga loydan qush shaklini yasab, unga dam ursam-u Allohnинг izni bilan (rostakam) qush bo‘ladi...” [10:38]. Mazkur suranining 110-oyatida: Eslang, Alloh: “...Mening iznim bilan loydan qush shaklini yasading. So‘ngra unga dam urganingda, u Mening iznim bilan (chinakam qushga) aylandi...”.

Qush ramzi Ibrohim va Iso alayhissalomlarning tiriltirish mo‘jizalari bilan bog‘liq bo‘lsa, “Yusuf” surasida esa tush motivi orqali namoyon bo‘ladi. “Yusuf” surasi (36-oyat)da Yusuf alayhissalom bilan birga qamoqda yotgan podshohning nonvoyi quyidagi tushi haqida hikoya qiladi: “Men boshimda non ushlab turgan edim, qushlar undan yeishardi. Bu tushning ta’birini

ayting, chunki sizni ezgu ish qilguvchi odam ekanligingizni ko‘rmoqdamiz”. Yusuf alayhissalom esa javoban: “...u (dorga) osiladi, qushlar uning boshiga tushishadi...” deydi. Demak, qushlar ham tush olami, ham haqiqiy hayotda bir xil vazifani o‘taydi.

### MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Kalomullohning “Nahl” surasida esa qushlarning osmonda muaallaq tura olishi, parvoz qilishi Alloh taoloning mo‘jizasi, Uning qudrati ekanligiga ishora beriladi. “Osmon fazosida (uchishga) bo‘yin sundirilgan qushlarga boqmaydilarmi?! Ularni faqat Alloh tutib turibdu! Albatta, bunda imon keltiradigan qavm uchun alomatlar bordir”[10:174]. “Nahl” surasida qushlarning havoda uchishi tasvirlangan bo‘lsa, “Mulk” surasining 19-oyatida esa: “Ularning ustida qanotlarini yoyib, uchib yurgan qushlarni ko‘rishmadimi? Ularni faqat Rahmongina ushlab turibdi...”- deyilgan. Bu oyatlar va “Nahl” surasidagi tasvirlar payg‘ambarlar hayoti, Allohnинг yagona ekanligiga aqliy dalillar, yer-osmon va barcha mavjudotlarning Allohnинг qudrati va hikmati bilan yaratilganligi hamda din va ibodatga oid boshqa masalalarni yoritadi. “Anbiyo” surasining 79-oyatida “Bas, Biz uni Sulaymonga anglatdik. Biz har ikkisiga hikmat (payg‘ambarlik) va ilm ato etdik. Tog‘lar va qushlarni Dovud bilan birga tasbeh aytadigan qilib bo‘yinsundirib qo‘yidik. Biz shunday qila oluvchidirmiz” [10:214].

Ushbu oyatni XI asr fors adabiyotining so‘fiy vakillaridan biri bo‘lmish Sanoiyning “Tasbih ut-tayr ” nomli qasidasi bilan izohlashni joiz deb bildik. Misol tariqasida so‘zboshidan quyidagi kichik parchani tahlilga tortamiz.

Musicha qaytaradi: “O, rizq ato etguvchi, har bir jonzotga luqma berguvchi, qalbga hayot berguvchi!”

Turna deydi: “Sen eng qudratli, sen tirk jonni o‘lim bilan jazolaysan!”

Suvdan turib o‘rdak shunday deydi: “Sen - hukmdor, dunyoga tuhfa Sendirsan!”

Burgut aytadi: “Sen payg‘ambarga ishonadigan xalqlarni asraysan!”

Shunda kalxat aytadi: “O‘zining qudrati bilan Egam olamdagи barcha narsani asraydi” [5:475].

Sharqshunos M.L.Reysner bu matnning qiziq talqinini keltiradi: qasidaning markaziy qismi

bir paytning o‘zida ibodat qilayotgan qushlar tilga olingen Qur‘on oyatlariga sharh va so‘fiylar orasida keng tarqalgan Alloh nomlarining tilga olinishining o‘zgacha usuli(zikr)ni o‘z ichiga oladi. Bu fikrni kengaytirib, Reysner yozadiki, Sanoiy “Nur” surasida keltirilgan Allohga maqtovlar keltirayotdan qushlar haqidagi oyatdan ruhlanib qasidani yozadi: “Allohga osmonlar va yerdagi bir jonzot va saf tortgan holidagi qushlar tasbih aytishini ham ko‘rmaysanmi? Har biri o‘z duosi va tasbihini, batahqiq, bilmishdir. Alloh esa nima amal qilishlarini o‘ta bilguvchidir” [6:28]. Darhaqiqat, har bir qush nutqida Asmo ul-husna-Allohnинг go‘zal sifatlari mazmuni aks etganining guvohi bo‘lamiz. Ushbu turli sifatlar bilan Allohnинг ulug‘lanishi: musicha Uni rizq berguvchi (Ar-Rohmaan, Al-Qobid, Al-Baasit, Ar-Rozzaq) ekanligini aytib o‘tadi; humo qushi Allohnинг yagonaligini (Al-Malik, Al-Qoviy); turna esa qudratliligidan (Al-A‘zim, Al-Kabir, Al-Jalil, Al-Qodir) xabar beradi; o‘rdak Uni olamlar Robbisi (Al-Ahad,As-Somad,Al-Baqi) deb ulug‘laydi, tustovuqlar uning barcha sirlarni bilguvchi ekanligi; lochin U barcha iymon egalarini muhofaza (Al-Hafiz, Al-Vadud, Al-Valiy) etishini, kalxat esa Alloh borliqning asosi (Al-Muhyi, Al-Mumit, Al-Hayy) ekanligini aytadi. Va astasekinlik bilan qushlar tomonidan kuylangan duolar Allohnи ulug‘lashning asosiy formulasi bilan umumlashadi. Bu aynan o‘sha Sulaymon payg‘ambarga Alloh tomonidan ato etilgan “qush tili” (“mantiq ut-tayr”)ning tug‘ilish paytidir. Keltirilgan barcha ma’lumotlar qushnomalarning Qur‘onga oid mazmunini tiklashga yordam beradi.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Muxtasar qilib aytganda, “Qushnomalar” turkumidagi asarlar tasavvuf g‘oyalarini oddiy va tushunarli tarzda keng ommaga yetkazish vazifasini o‘tagan. Garchi ular to‘liq tasavvuf adabiyoti janriga kirmasa ham, qush obrazidan foydalanib, tasavvufiy-ilohiy tushunchalarni badiiy adabiyotda

yuqori darajada ifodalashga erishilgan. Qushlar Alloh tomonidan yaratilgan, zikr aytishga buyurilgan va itoatkor mavjudotlardir. Shuning uchun “Qushnoma”lardagi asosiy obraz sifatida qush tanlangani beziz emas, chunki qushlarning tasavvuf va ilohiylik darjasini Qur‘oni Karim oyatlari bilan tasdiqlangan.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Тошкент: Faafur Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019.
- 2.Имом Аҳмад Фаззолий. Тил оғатлари ва ундан сақланиш йўллари. Тошкент: MUNIR, 2021..
- 3.Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. / Филол.фан.номз....дисс. Тошкент: ЎзМУ, 2011.
- 4.Раҳматиллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Ж.1.Тошкент: Университет, 2000.
- 5.Рейнер М.Л. Птицы и мистико-символических касыдах Санай и Хакани (XII в) (к проблеме становления символического языка в классической персидской касыде)//Исследования по иранской филологии. Выпуск первый. Москва, 1997.С. 26-28.
- 6.Федорова Ю.Е. От касыды до трактата: философский анализ сюжетов о беседах птиц //Ориенталистика. 5(3). 2022. С. 474-488.
- 7.Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.
- 8.Ўзбек тилининг изоҳли луғати /Мадвалиев А. Ж.3.Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 1981.
- 9.Қуръони Карим.Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон, 2001.
- 10.Қуръони Карим: маъноларининг таржима ва тафсири/Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Т.: Тошкент ислом университети, 2016.